

ISLOM SHARIYATI VA ZAMONAVIY DAVLATDA AYOLLAR HUQUQLARINING QIYOSIY TAHLILI

Narimonova Muxlisa Murod qizi

**O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Islomshunoslik yo'nalishi 4-kurs talabasi**

Mamazova Zarifa Kurbanovna

"Ijtimoiy fanlar va huquq" kafedrası katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15280866>

Annotatsiya: Ayollar huquqi islom hamjamiyatining asosiy diqqat-markazida bo'lgan masalalaridan biridir. Butun dunyo va O'zbekistonda musulmonlar idorasi, fatvo bo'limlariga har yili ko'plab ayol-qizlarning masalasiga doir savololar, taklif-mulohazalar yetib keladi. Ayollar huquqiga islom dinida erkaklarnikidan kam e'tibor qaratilgan emas. Ayollarning oila va jamiyatdagi huquqi erkaklarnikidan deyarli farq qilmaydi. Ayollar oilada ona, rafika sifatida o'rin topgan bo'lsa, jamiyatning to'laqonli bir qismi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Ayollar huquqi, ijtimoiy huquq, oilaviy huquq, yashash huquqi, ta'lim olish huquqi, onalik huquqi, turmush qurish huquqi, saylov huquqi, kasb-kor huquqi.

COMPARATIVE ANALYSIS OF ISLAMIC LAW AND WOMEN'S RIGHTS IN THE MODERN STATE

Narimonova Mukhlisa Murod qizi

**International Islamic Academy of Uzbekistan,
4th year student of Islamic Studies**

Mamazova Zarifa Kurbanovna

Senior lecturer of the Department of "Social Sciences and Law"

Abstract: Women's rights are one of the main issues of concern to the Islamic community. Every year, many questions, proposals and comments on the issues of women and girls arrive at the offices of Muslims and fatwas all over the world and in Uzbekistan. Women's rights are paid no less attention in Islam than men's. Women's rights in the family and society are almost the same as those of men. Women are considered a full-fledged part of society if they find their place in the family as mothers and wives.

Keywords: Women's rights, social rights, family rights, right to life, right to education, motherhood, right to marriage, right to vote, professional rights.

Ayol Yaratganning erkak zotiga bergan ne'matidir. Islom dini ayolni e'zozlash va ularga munosabatda ehtiyorkor va sabrli bo'lishga chaqiradi. Ayolning oiladagi, jamiyatdagi, farzandlari oldidagi burch va vazifalari, huquq va erkinliklari ko'p asrlardan buyon bahs va munozaraga sabab bo'ladigan mavzu hisoblanadi. Ba'zi kishilik jamiyatlari ayollarga e'tibor berish, ularning haq-huquqlarini himoya qilish tarafdorlari bo'lgan bo'lsa, ba'zilarida buning aksi bo'lgan. Islom dinida esa barchaga birdek xitob qilinib, erkak va ayollarga tenglik ila muomala qilingan. Haq-huquqlarda birini boshqasidan ustun qo'yilmagan. Ayollar Islomda ona, opa-singil, jufti halol va qiz sifatida hurmatlanadi. Qur'oni karimning o'ndan ortiq suralarida va ko'plab hadisi shariflarda ayollarga tegishli hukmlar mavjud. Hatto Qur'oni karimning katta suralaridan biri "Niso" ("Ayollar") deb nomlangan. Bularning hammasi Islom dinida ayollarga bo'lgan yuksak e'tibordir. Islomda ayollarning haq-huquqlari mavzusida so'z yuritishdan avval haq so'ziga to'xtaladigan bo'lsak. Xo'sh, haq o'zi aslida nima?

Haq so'ziga ulamolar tarafidan juda ko'plab ta'riflar berilgan bo'lib, umumiy va muhtasar berilgan ta'rifdan foydalanishni lozim topdik. "Haq" so'zi lug'atda yakka shaxs yoki biror bir jamoa uchun qat'iy sobit qilingan ish ma'nosini beradi. Istilohda esa shar'an o'rnatilgan foyda ma'nosida keladi. Musulmon kishi huquqlaridan foydalanishi kafolatlanishi uchun Islomdagi har bir haqning muqobilida burch tushunchasi turadi. Masalan ta'lim olish yosh bolaning haqqi, davlatning esa burchidir. Islomda ayollarning huquqini oiladagi, turmush o'rtog'idagi, jamiyatlardagi va mulkdagi kabi bir nechta turlarga bo'lish mumkin. Ayolning aksar huquqlari erkagu-ayolga birdek xos bo'lgan huquqlardir. Ammo ayol huquqlarining bir qancha o'ziga xosligi bor bo'lib, ular bilan quyida tanishamiz. Ayollarning eng birlamchi huquqi bu:

– Yashash huquqi. Islomdan avval ayollar yashash huquqiga ega emas edilar. Aksar hollarda oilada tug'ilgan qiz farzand vahshiylarcha o'ldirilardi. Islom dini xotin-qizlarning mavqeini ko'taruvchi, jamiyat cho'qqisiga ko'taruvchi bir qancha tamoyillarni e'lon qildi. Bu tamoyillar qatorida, birinchisi, ayol insoniyatda erkakka o'xshab, yashash huquqi ga egadir.

An'om surasining 151-oyatida deyilganki:

﴿قُلْ تَعَالَوْا أَتْلُ مَا حَرَّمَ رَبِّيَ عَلَيْكُمْ أَلَّا تُشْرِكُوا بِهِ شَيْئًا وَبِالْوَالِدَيْنِ إِحْسَانًا وَلَا تَقْتُلُوا أَوْلَادَكُمْ مِنْ إِمْلَاقٍ نَحْنُ نَرْزُقُكُمْ وَإِيَّاهُمْ وَلَا تَقْرَبُوا الْفَوَاحِشَ مَا ظَهَرَ مِنْهَا وَمَا بَطَنَ وَلَا تَقْتُلُوا النَّفْسَ الَّتِي حَرَّمَ اللَّهُ إِلَّا بِالْحَقِّ ذَلِكَُمْ وَصَاكُمْ بِهِ لَعَلَّكُمْ تَعْقِلُونَ﴾

"Keling, Robbingiz sizlarga harom qilgan narsalarni tilovat qilib beraman: Unga hech narsani shirk keltirmang! Ota-onangizga yaxshilik qiling! Ochlikdan qo'rqib, bolalaringizni o'ldirmang. Biz sizlarni ham, ularni ham rizqlantirurmiz. Fahsh–buzuq ishlarning oshkorasiga ham, maxfiysiga ham yaqinlashmang. Alloh harom qilgan jonni o'ldirmang. Magar haq ila bo'lsa, mayli. Ushbularni sizga amr qildikki, shoyad aql yuritsangiz, deb ayt"¹.

Mana shu oyati karimaning shafosatidan ota-onaga ozor bermoq, ularni tahqirlamoq, shuningdek, yosh qizlarni tiriklayin ko'mib o'ldirmoq kabi yovuzliklarga chek qo'yildi.

– Ta'lim olish huquqi. Islomda ayollarning ilm izlash va egallashlariga to'sqinlik qiladigan hech narsa kelgani yo'q, aksincha, bu musulmonlardan talab va farz qilingan va ayol yoki erkak deb ajratmagan holda targ'ib qilingan. Islomda farzand tarbiyasi bilan asosan uning onasi shug'ullanadi ya'ni ona ko'proq vaqt o'tkazadi. Shu sababdan islom nafaqat ayolga ilm olish huquqini berdi, balki buni farzandi ustidagi vojib amallardan qildi.

– Ayolning onalik huquqi. Islomda ona ulug'lanadi, uning haqqi Alloh va Rosulining haqqidan keyingi o'rinda turadigan darajada muhimdir. Qur'oni Karimda ota-ona, xossatan onaning haqqini ado qilishga, uni hurmat qilishga chaqiradigan ko'plab oyatlar mavjud.

﴿وَوَصَّيْنَا الْإِنْسَانَ بِوَالِدَيْهِ إِحْسَانًا حَمَلَتْهُ أُمُّهُ كُرْهًا وَوَضَعَتْهُ كُرْهًا وَحَمْلُهُ وَفِصَالُهُ ثَلَاثُونَ شَهْرًا حَتَّىٰ إِذَا بَلَغَ أَشُدَّهُ وَبَلَغَ أَرْبَعِينَ سَنَةً قَالَ رَبِّ أَوْزِعْنِي أَنْ أَشْكُرَ نِعْمَتَكَ الَّتِي أَنْعَمْتَ عَلَيَّ وَعَلَىٰ وَالِدَيَّ وَأَنْ أَعْمَلَ صَالِحًا تَرْضَاهُ وَأَصْلِحْ لِي فِي ذُرِّيَّتِي إِنِّي تُبْتُ إِلَيْكَ وَإِنِّي مِنَ الْمُسْلِمِينَ﴾

"Biz insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik. Onasi unga qiylanib homilador bo'ldi va uni qiylanib tug'di. Va uning homilasi va ko'krakdan ajratishi o'ttiz oydir. Toki u kamolga yetib, qirq yoshga kirganida: "Robbim O'zing menga va ota-onamga bergan ne'matlaringga shukr qilishimga va sen rozi bo'lgan solih ishlarni qilishimga ilhom bergin. Va mening zurriyotlarimni ham solihlardan qilgin. Albatta, men tavba qildim va albatta, men musulmonlardanman", dedi"². Alloh taolo insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurmoqda.

¹ Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – J:3. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008. – B.273.

² Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. . – J:3. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008. – B.224.

Bu insoniylik burchidir, boshqa hech qanday asos yo'q. Inson faqat insonligi uchun ota-onasini hurmat qilishi, e'zozlashi zarur. Lekin shu bilan birga, oyatning o'zida ota-onaga yaxshilik qilishning boislariidan ba'zisi aytib o'tilmoqda.

Ayollar Islomda ona sifatida benihoya qadr topdilar. Qur'oni karimda Payg'ambar (s.a.v)ning jufti halollari Qiyomatgacha keladigan "mo'minlarning onasi", deb e'lon qilindi. Alloh taoloning roziligi ota-onaning roziligiga bog'liqligi Islom dini ko'rsatmalarida ta'kidlangan. Hatto hadisi shariflarda yaxshilik qilishni onadan boshlashga buyurilgan.

Kunlarning birida Muoviya ibn Johima as-Sulamiy (r.a) Payg'ambar (s.a.v) huzurlariga kelib: "Alloh taolo yo'lida jehod qilmoqchiman", – deb ruxsat so'raydi. Payg'ambar (s.a.v) uning onasi tirikligini bilib, onasiga xizmat qilishni buyuradilar. Yana ruxsat so'rayvergach, U Zot: "Baraka topgur, volidangizning oyog'iga mahkam yopishing, o'sha yerda jannat bor!"³ – deyidilar (Imom Ibn Moja rivoyati).

Imom Buxoriyning "Al-adab al-mufrad" kitobidagi quyidagi hadisi sharifni keltiganlar: Bahs ibn Hakimdan, u otasidan, u bobosidan rivoyat qilinadi: "Yo Rosululloh kimga yaxshilik qilay?" U zot: "Onangga", — dedilar. "Kimga yaxshilik qilay? — dedim. "Onangga", — dedilar. "Kimga yaxshilik qilay?" – dedim. "Onangga", — dedilar. "Otangga va yana yaqinlaringga", — dedilar"⁴.

Mana shu hadisdan ulamolar "onaning haqqi otanikidan ko'ra uch baravar ko'p" degan xulosaga kelishgan⁵.

– Ayolning turmush qurish yoki umr yo'ldosh tanlash huquqi. Bu ham ayolning asosiy haqlaridan biri hisoblanadi. Bizning hanafiylik mazhabida bokirani uning roziligisiz turmushga berish yo'q. Juvonning esa turmush qurish ixtiyori to'liq o'zidadir.

عَنْ عَائِشَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهَا قَالَتْ: كَانَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ إِذَا أَرَادَ أَنْ يُزَوِّجَ شَيْئًا مِنْ بَنَاتِهِ جَلَسَ إِلَى خَدْرَهَا، فَقَالَ: إِنْ فَلَانًا يَذْكُرُ فَلَانَةً، يُسَمِّيَهَا وَيُسَمِّي الرَّجُلَ الَّذِي ذَكَرَهَا فَإِنْ هِيَ سَكَتَتْ زَوَّجَهَا، وَإِنْ هِيَ كَرِهَتْ نَقَرَتِ السِّتْرَ، فَإِذَا نَقَرَتْهُ لَمْ يَزَوِّجْهَا. (رَوَاهُ أَحْمَدُ بْنُ حَنْبَلٍ).

Oisha (r.a)dan rivoyat qilinadi: Rasululloh (s.a.v)qachon qizlaridan birortasini uzatmoqi bo'lsalar, uning pardasi oldiga o'tirib, Falonchi Falonani zikr qilmoqda , deb, uning ham, uni zikr qilgan erkakning ham ismini aytar edilar. Agar u sukut saqlasa, nikohlar edilar. Agar u qiz yoqtirmasa, pardani chertar edi. Qachon qiz pardani chertsa, uni nikohlamas edilar⁶.(Ahmad rivoyat qilgan.)

Ushbu hadisdan ko'rinib turibdi-ki, qiz bolani majburan uzatish yo'q. Bu payg'ambar Muhammad (s.a.v)ning o'zlaridan qolgan merosdir.

عَنْ خُنْسَاءَ بِنْتِ خَدَامِ الْأَنْصَارِيِّ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهَا: أَنَّ أَبَاهَا زَوَّجَهَا وَهِيَ ثَيِّبٌ فَكَرِهَتْ ذَلِكَ، فَأَتَتْ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ فَزَدَتْ نِكَاحَهُ. رَوَاهُ الْبُخَارِيُّ وَأَبُو دَاوُدَ.

Xonsa bintu Xidom al-Ansoriya roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi:

Otasi u kishini so'ramay, juvon holida erga berdi. Bu unga yoqmay, Rasululloh (s.a.v)ning huzurlariga keldi. Bas, u zot uning nikohini bekor qildilar. (Buxoriy va Abu Dovud rivoyat qilganlar)

Demak, juvon ayolni o'zidan so'ramay yoki majbur qilib birovning nikohiga berib

³ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. –Toshkent: Hilol nashr, 2018. – B.109.

⁴ Imom Buxoriy. Al-adab a- mufrad. – J:1. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008. – B. 60.

⁵ Imom Buxoriy. Al-adab a- mufrad. – J:1. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008. – B. 60.

⁶ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. –Toshkent: Hilol nashr, 2018. – B.85.

bo'lmaydi. Islom dini bunday vaqtda o'sha ayolga qoziga arz qilish huquqini beradi. Arz qilingan chog'ida esa, qozi unday nikohni buzish haqida hukm chiqaradi. Izn so'ramay nikohlangan chog'da ish ayolning roziligiga bog'liq bo'lib qoladi. U: Roziman, desa, nikoh nikoh bo'ladi, bo'lmasa, buziladi.

– Ayolning go'zal muomalaga haqli ekanligi. Islomda ayol johiliyat davridagidek xo'rlanmaydi, balki Alloh taolo mo'minlarga ularga go'zal muomalada bo'lishni, va hatto ularni tark qilsalar go'zal holda, zulm qilmay tark qilishni buyuradi:

﴿يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا لَا يَحِلُّ لَكُمْ أَنْ تَرِثُوا النِّسَاءَ كَرْهًا وَلَا تَعْضُلُوهُنَّ لِتَذْهَبُوا بِبَعْضِ مَا آتَيْنَهُنَّ إِلَّا أَنْ يَأْتِيَنَّ بِفَاحِشَةٍ مُبَيِّنَةٍ وَعَاشِرُوهُنَّ بِالْمَعْرُوفِ فَإِنْ كَرِهْتُمُوهُنَّ فَعَسَى أَنْ تَكْرَهُوا شَيْئًا وَيَجْعَلَ اللَّهُ فِيهِ خَيْرًا كَثِيرًا﴾

“Ey iymon keltirganlar! Sizlarga ayollarni zulm-la merosga olish halol emas. Ochiq fohisha ish qilmasalar, bergan narsalarningizning ba'zisini olish uchun ularni zo'rlik-la ushlab turmang va ular ila yaxshilikda yashang. Agar ularni yoqtirmasangiz, shoyadki, Alloh siz yoqtirmagan narsada ko'pgina yaxshiliklarni qilsa”⁷.

Ushbu oyat Islomdan oldingi davrda ayol kishiga zulm va jabr shaklida joriy qilingan ba'zi odatlarni botil etmoqda. Jumladan, johiliy arablarning odati bo'yicha, erkak kishi vafot etsa, uning xotini ham boshqa molu mulki qatori qarindoshlariga meros bo'lib qolar edi. U bechora ayolni zo'rlik-la merosga olishar edi. Xohlasa, birontasi unga mahr bermay uylanar yoki boshqa birovga erga berib, mahrini o'zlari olishar yoki umuman u sho'rlikni erga berishmas, o'zlari ham uylanishmas, bexuda ushlab turishar edi.

Ushbu oyatda Alloh taolo mo'min-musulmon bandalariga xitob qilib, bunday ishlar yaramasligini bayon qilmoqda. Va ayollarga nisbatan bo'lgan zulm va jabr-sitamni ko'tarmoqda. Va yana oyatda “Ular ila yaxshilikda yashang” xitobi mo'minlarga qarat aytilgan. Ayol bilan yaxshilikda yashash, unga yaxshi muomalad bo'lish erkakning vazifasi ekan. Afsuski bugungi kunda ko'plab jamiyatlarda ayolni, xususan kishi o'z rafiqasini xo'rlash holatlari haligacha kuzatilmoqda.

– Ayolning bosqichma bosqich tarbiyalanish haqqi. Bu ham afsuski hozirgi kunimizdagi og'riqli nuqtalardan biri hisoblanadi. Alloh taolo o'z kitobida Niso surasi 34-oyatida keltiradi:

﴿الرِّجَالُ قَوَّامُونَ عَلَى النِّسَاءِ بِمَا فَضَّلَ اللَّهُ بَعْضَهُمْ عَلَى بَعْضٍ وَبِمَا أَنْفَقُوا مِنْ أَمْوَالِهِمْ فَالصَّالِحَاتُ قَانِتَاتٌ حَافِظَاتٌ لِمَا بَيْنَهُنَّ وَاللَّاتِي تَخَافُونَ نُشُوزَهُنَّ فَعِظُوهُنَّ وَاهْجُرُوهُنَّ فِي الْمَضَاجِعِ وَاضْرِبُوهُنَّ فَإِنْ أَطَعْتُمْ فَلَا تَبْغُوا عَلَيْهِنَّ سَبِيلًا إِنَّ اللَّهَ كَانَ عَلِيمًا كَبِيرًا﴾

“Alloh ba'zilarini ba'zilaridan ustun qilgani va mollaridan sarflaganlari uchun erkaklar ayollarga rahbardirlar. Soliha ayollar–itoatkor va Allohning hifzi-himoyasi bo'yicha g'oyib(er)larining muhofazasini qiluvchilardir. Bosh ko'tarishlaridan xavf qilingan ayollarga va'z-nasihat qiling, yotoqlarida hijron qiling va uring. Agar itoat qilsalar, ularga qarshi boshqa yo'l axtarmang. Albatta, Alloh yuksak maqomli buyuk zotdir”⁸.

Alloh taolo hech bir ishni behikmat qilmaydi. Jumladan, erkak kishi oila rahbari bo'lsa va u o'z rahbarligini shariatda ko'rsatilgandek ado etsa, bunday oilalar baxt-saodatga sohib bo'lmoqda. Bu ko'rsatmaga yurmagan oilalar esa, baxtsizlikka uchramoqda, shundaylardan tashkil topgan jamiyatlar ham baxtsizlikka duchor bo'lmoqda. Bu yerda gapni cho'zib o'tirishning hojati bo'lmasa kerak. Mo'mina, soliha ayollarning tabiatida eriga itoatkorlik

⁷ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – J:3. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008. – B.424.

⁸ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – J:3. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008. – B.127.

bordir.

Biz “itoatkorlik” deb tarjima qilayotgan soʻz oyati karimada “qonitatun” lafzi ila kelgan. Bu soʻz oʻz irodasi, ragʻbati va muhabbati ila itoat qilish maʼnosini anglatadi. Demak, moʼmina, soliha ayollarning erlariga itoati oʻz masʼuliyatini tushungan holdan kelib chiqqan boʻladi. Qoʻrqqanidan, majburlashdan yoki boshqa biror bosqidan emas. Bu itoat oʻzini tushungan, hayotdagi oʻrnini, vazifasi va masʼuliyatini his etgan goʻzal insonning itoatidir.

Baʼzi johil kimsalar ushbu oyatdagi “uring” jumlasidan oʻz nafslari istaklari yoʻlida, notoʻgʻri foydalanadilar. Bu oyatda ayollarga tarbiya berishning bosqichlari koʻrsatilgan. Avval yaxshi nasihat, soʻngra yotoqni alohida qilish, u ham ish bermagandagina jumhur ulamolarning fikriga koʻra jarohat yetkizmaydigan darajada yengil urishdir. Chunki ayol tabiatan nozik, ojiza qilib yaratilgan. Jazo tariqasida, yengil tarzda kaltak ham unga kifoya qiladi. Aziyat beradigan zarba nafaqat uning jismini, balki qalbi va ruhini ham sindirishi mumkin.

– Islomda ayol kishi ajrashish huquqiga ega. Dinimizda ayol kishi erining zulmlariga bardosh berishga majbur emas. Har qanday moddiy yoki maʼnaviy zarar ayol kishiga sud orqali beriladigan ajrashish uchun yetarli asos hisoblanadi. Shuni qayd etamizki, ajrashish musulmon kishi uchun katta moddiy xarajatlarni keltirib chiqaradi. Er farzandlarini toʻliq taʼminlashi, sobiq xotiniga ularning tarbiyasi uchun va maʼlum muddatgacha boqishi uchun pul toʻlashi, uy ijarasi haqqini toʻlashi shart. Er nikohning saqlanib qolishidan moddiy va maʼnaviy jihatdan manfaatdor. Islom dunyosining mustahkam oila zanjirlari bilan dong taratgani bejiz emas.

– Islomda davlat rahbarini saylash, unga itoatni eʼlon qilish bayʼat deyiladi. Bu eng muhim siyosiy haq ekani hammaga maʼlum. Qurʼoni Karimda erkaklar bilan bir qatorda ayollarga ham bayʼat qilish huquqi berilgan.

Alloh taolo Mumtahana surasi 12-oyatida:

﴿يَا أَيُّهَا النَّبِيُّ إِذَا جَاءَكَ الْمُؤْمِنَاتُ يُبَايِعْنَكَ عَلَى أَنْ لَا يُشْرِكْنَ بِاللَّهِ شَيْئًا وَلَا يَسْرِقْنَ وَلَا يَزْنِينَ وَلَا يَقْتُلْنَ أَوْلَادَهُنَّ وَلَا يَأْتِينَ بِبُهْتَانٍ يَفْتَرِينَهُ بَيْنَ أَيْدِيهِنَّ وَأَرْجُلِهِنَّ وَلَا يَعِصِينَكَ فِي مَعْرُوفٍ فَبَايِعْنَهُنَّ وَاسْتَغْفِرْ لَهُنَّ اللَّهُ إِنَّ اللَّهَ غَفُورٌ رَحِيمٌ﴾

“Ey Nabi, agar moʼminalar huzuringga kelib, Allohga hech narsani shirk keltirmaslik, oʻgʻrilik qilmaslik, zino qilmaslik, farzandlarini oʻldirmaslik, qoʻllari va oyoqlari orasidan boʻhton toʻqib keltirmaslik va senga maʼrufda isyon qilmaslikka bayʼat bersalar, ulardan bayʼat olgin. Va Allohdan ularga magʻfirat soʻra. Albatta, Alloh oʻta magʻfiratlidir, oʻta rahmlidir”⁹, degan.

Ushbu oyatdagi bayʼat berish, bugungi kunimizdagi saylovlarda saylash huquqiga bevosita toʻgʻri kieladi. Bundan koʻrinib turibdi-ki, ayol kishi davlat rahbarlarini saylash huquqiga ham ega.

– Ayolda kasb-kor qilish huquqi. Islomda harom xarish ishlar mutlaqo harom qilingani hammaga maʼlum. Koʻngil xushini esa ishlab turib qilgandan ishlamay qilgan ayollarning oʻzi uchun yaxshi boʻlsa kerak. Yana bir bor taʼkidlash lozimki, Islomda ayol kishining ishlashi man qilinmagan, balki bu masala ayol kishining, uning oilasining, jamiyatining manfaatlaridan kelib chiqib tartibga solingan. Yosh bolalarning tarbiya va taʼlim ishlari ayollarning ishi hisoblanadi. Xotin-qizlarga tibbiy xizmatlar koʻrsatish ayollarning ishi hisoblanadi. Mutaqaddim Hanafiy faqihlardan Kamoliddin ibn al-Humom: “Agar ayolning xotinlarga xos

⁹ Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – J:3. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008. – B.131.

farzi kifoya ishda hunari bo'lsa, uning eri (ishga) chiqishidan man qila olmaydi", deganlar.

Shuningdek, ayol kishi erining ishida yordamchi bo'lishi, oilasi muhtoj bo'lganda halol yo'l bilan, halol mehnat qilishi joiz. Ya'ni, o'zi xohlasa ishlaydi, bo'lmasa birov uni majbur qila olmaydi. Ba'zi ulamolarimiz nodir qobiliyatga ega bo'lib jamiyatga foydasi ko'p bo'lgan ayollar ham ishlashlari tavsiya qilinadi, deganlar. Qolgan paytlarda ayol kishini ishlashga majbur qilish yo'q. Uning nafaqasi to'laqonli erining zimmasidadir.

Ayolning oilasi va jamiyatdagi huquqlari juda katta bir mavzu bo'lib, ulardan asosiy va birlamchilarini keltirib o'tishga harakat qildik. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdi-ki Islom dinida ba'zi johil kimsalar aytganidek ayollarning huquqlari poymol qilinmagan, balki ularga yuksak darajada ehtirom ko'rsatilgan. Ayolning ona, rafiqqa, qiz, singil, qarindosh va hatto begona bo'lgan holatda ham o'z haq-huquqlari mavjud. Ayollar ham hayotning ko'p jabhalarida erkaklar kabi teng huquqlidirlar. Ularga ba'zi o'rinlarda berilgan cheklovlar ularni kamsitish yoki yerga urish jihatidan emas, balki ularning nozik tabiati va xilqatidandir. Ya'ni ularga ba'zi o'rinlarda berilgan cheklovlar ularni yerga urish uchun emas, ularni avaylash uchundir. Ayollari hurmatlangan jamiyat kuchli jamiyatdir.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Iymon. –Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008.
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – Toshkent. Hilol-nashr, 2021.
3. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – J:3. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008.
4. Imom Buxoriy. Al-adab al- mufrad . – J:1. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008.